

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA RUS TILINI O‘QITISHDA O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Shadmanova Nigora Irgashevna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasи katta o‘qituvchisi

Numonova Iroda Orif kizi

Qarshi Xalqaro universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘qitishda turli o‘yinlardan foydalanishning ijobiy jihatlari hamda metodologik tahlili olib boriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, rus tili, metod, vosita, o‘qitish.

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali yosh jahatidan kichik bo‘lishlariga qaramay, xarakter, fe’l-atvorlari juda murakkab bo‘ladi. Odatda, kichik yoshdagи maktab o‘quvchilik davri bolalikning eng yuqori pog‘onasi hisoblanadi. O‘quvchilar hali o‘zida bolalikning ko‘pgina xususiyatlarini, ya’ni yengiltaklik, soddalik, o‘yinqaroqlikni saqlab qolib, ammo ta’lim vazifalarini amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan, aniq va mantiqiy fikrlash paydo bo‘la boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o‘quv faoliyati yetakchi hisoblanadi. U shu yoshdagи bolalarning ruhiy kechinmalarining rivojlanishida yuz beruvchi asosiy o‘zgarishlarni belgilab beradi.

ASOSIY QISM

Ko‘pchilik bolalar mактабда rus tilini o‘rganishni boshlashayotganda uni qiziqarli va maroqli jarayon deb o‘ylashadi. Lekin vaqt o‘tishi bilan bu jarayon uncha

oson emasligini tushunib, rus tili ular uchun yoqtirmagan fanlar qatoriga kira boshlaydi. Odatiy ta’lim jarayoni istalgan natijalarni bermaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faol bo‘lishi uchun turli rag‘batlantiruvchi usullar ko‘p, lekin eng samaralisi bu o‘yindir. O‘yinlar qizg‘in til amaliyotini targ‘ib qiladi. O‘yin–umumiylar uyushgan faoliyat bo‘lib, u hayajon, aqliy faoliyat va diqqat e’tiborni bir joyga majassamlanishini talab etadi. Rus tili umumiylar ta’lim fani sifatida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga o‘z hissasini qo‘sishi kerak. O‘yinlar o‘quvchilarni ijodkor shaxs bo‘lishiga yordam berib, har bir vazifaga ijodiy yondoshishga o‘rgatadi. Vazifalar yechimiga ijodiy yondoshish esa, ishni yuqori saviyada bajarilishini taminlaydi. O‘yinlar esa bolalar va kattalarga ijodiy quvonch ulashadi. Ijodkorlik bolalarga tabiat tomonidan berilgan bo‘lib, ular turli narsalarni o‘ylab topishni, fantaziyaga berilishni, tasvirlashni, taqlid qilishni yoqtirishadi. Agar o‘z vaqtida atrofdagilar tomonidan o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatiga qiziqish bildirilmasa, tez orada yo‘qolib ketishi mumkin. O‘quvchilar o‘yin jarayonida doim oldinga intilishga harakat qilishadi. O‘yin jarayonida o‘quvchining ongi, aql-idroki va fantaziysi birgalikda ishlaydi. Rus tili darslarida turli o‘yinlarni qo‘llash, til o‘rganish jarayonini maroqli ko‘rinishda bo‘lishini ta’minlab, xotirani rivojlantiradi va rus tiliga bo‘lgan qiziqishni susayishini oldini oladi. O‘yinlar yana qiyin o‘quv materallarni tushuna bilish va nutq faoliyatini rivojlantirish uchun juda muhim. Audioli o‘ynalanadigan o‘yinlar orqali so‘zlarni bir marta aytishida tushunishni samarali o‘rgatish mumkin. Bu o‘yinlarni audio tekstlarsiz, rasmlarsiz, va kartochkalarsiz ham o‘ynash mumkin. Masalan: o‘qituvchi biron bir matnni odatiy sur’atda o‘qib beradi. So‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga matndagi eslab qolishgan so‘zlarni yozishni taklif etadi. Eng ko‘p so‘zlarni yozgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Audioli o‘yinlar uchun matnlarni istalgan rus tili kitoblaridan olish mumkin yoki o‘qituvchining o‘zi yozishi mumkin. Eng asosiysi oddiy matn orqali o‘qituvchi o‘quvchining e’tiborini torta olishi kerak. Bu turdagilarda o‘yinlarni dars jarayonida foydalanishdan asosiy maqsadlar: o‘quvchilarga so‘zlarni bir marta aytishda so‘zlarni ma’nosini anglashni o‘rgatish; o‘quvchilarning eshitish ko‘nikmasini

rivojlantirish. Rus tilini o‘qitish metodlarida obrazlar orqali o‘ynaladigan o‘yinlar keng qo‘llaniladi. Bu turdagи o‘yinlarni tashkillashtirib uni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqatgina o‘qituvchining fantaziyasiga bog‘liq bo‘lib qolmay, o‘quvchilarining uddaburonliklari ham juda muhim. Obraz orqali o‘ynaladigan o‘yinlarni dars jarayonida foydalanishdan asosiy maqsadlar: o‘quvchilarни rus tilida o‘ylashga o‘rgatish; o‘quvchilarни jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘quvchining so‘z boyligini ko‘paytirish.

1. O‘yin nomi: «His-tuyg‘u». O‘yin maqsadi: O‘tilgan mavzu bo‘yicha so‘zlarni takrorlash, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish. O‘yin jarayoni: 2 guruh ishtrokchilari galma galdan chiqib o‘z guruhdoshlariga yuz ifodalari orqali his tuyg‘ularni ifodolovchi so‘zlarni ko‘rsatib berishadi.

2. O‘yin nomi: «Raqamlar va ranglar». O‘yin maqsadi: O‘tilgan mavzu bo‘yicha so‘zlarni takrorlash, o‘quvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘yin jarayoni: Sinfni 2 guruhga bo‘lib, ular matematik misollarni yechishadi. Chiqqan javobda belgilangan ranglar yordamida ertak qahramonini bo‘yashadi.

3. O‘yin nomi «Timsoh». O‘yin maqsadi: O‘tilgan so‘zlarni takrorlash, jamoaviy ishlashga o‘rgatish. O‘yin jarayoni: O‘qituvchi sinfni 2 guruhga bo‘ladi. Har bir guruh ishtrokchisi galma galdan o‘qituvchi oldiga kelib, avvaldan tayyorlangan kartochkalardan birini tanlaydi. Keyin kartochkadagi tasvirni so‘zsiz, harakat orqali guruhdoshlariga tushuntirib berishga harakat qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida nomlari tilga olingan va boshqa bir qator o‘yinlarni amaliyotga joriy etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rus tiliga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirib, samarali o‘rganishni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Irgashevna, S. N. (2023). THE CULTURE OF THE TEACHER'S SPEECH WHEN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 8, 83-85.
2. Shodmonova, N. I. (2019). CO-TEACHING. Modern Science, (8-2), 221-224.
3. Shadmanova, N. I., & Usmonova, U. A. (2021). EFFECTIVENESS OF FIRST LANGUAGE IN ACQUISITION OF SECOND LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (1), 235-237.
4. Шадманова, Н. И. (2023). МОНОЛОГИЧЕСКАЯ И ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Academic research in educational sciences, 4(1), 298-302.
5. Irgashevna, S. N. (2023). LANGUAGE EDUCATION AS AN INTEGRAL COMPONENT OF PERSONAL AND PROFESSIONAL SPECIALIST GROWTH. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 8, 80-82.
6. Шадманова, Н. И. (2016). К вопросу о выражении названий местности на русском и узбекском языках. Молодой учёный, (11), 1726-1728.
7. Шадманова, Н. Б. (2018). Организация нравственного воспитания. Молодой учёный, (15), 260-262.
8. Shadmanova, N. I., & Raximova, D. P. (2019). UTILIZATION OF DICTIONARY. Theoretical & Applied Science, (5), 129-131.
9. Шадманова, Н. И. (2022). Монологическая речь с точки зрения учёных. Academic research in educational sciences, 3(2), 443-446.
10. Shadmanova, N. I., & Adilova, D. K. (2020). SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVILIZATION. Theoretical & Applied Science, (4), 168-171.